

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 4 650,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 114,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	3 828,8	4 650,6	105,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 699,5	4 548,1	105,8
mahsulotlarga sof soliqlar	129,3	102,5	106,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 699,5	4 548,1	105,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	743,7	848,6	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 684,8	2 145,1	106,7
sanoat	1 417,8	1 854,6	107,1
qurilish	267,0	290,5	104,5
xizmatlar	1 271,0	1 554,4	105,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	211,2	247,6	107,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	153,4	196,6	114,7
boshqa xizmat tarmoqlari	906,4	1 110,2	103,6



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 077,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,6	97,8
mahsulotlarga sof soliqlar	3,4	2,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20,1	18,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	45,5	47,2
sanoat	38,3	40,8
qurilish	7,2	6,4
xizmatlar	34,4	34,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,7	5,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,1	4,3
boshqa xizmat tarmoqlari	24,6	24,4



2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 18,7 % ni, sanoat tarmog‘i 40,8 % ni, qurilish 6,4 % ni va xizmatlar sohasi 34,1 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

2023- yil

3,4 %



20,1 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

38,3 %

Sanoat

7,2 %

Qurilish

34,4 %

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

18,7 %

Sanoat

40,8 %

Qurilish

6,4 %

Xizmatlar

34,1 %



2,2 %


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,6 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – salbiy 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2023- yilda – 1,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 18,7 %), sanoatda – 107,1 % (40,8 %), qurilishda – 104,5 % (6,4 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % ni (34,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,6 % (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,7 % (4,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (24,4 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



3,2 %

YAHM

5,8 %



3,2 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,2 %



3,9 %

Sanoat

7,1 %



-1,7 %

Qurilish

4,5 %




3,6 %

Xizmatlar

5,6 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 114,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 122,2 % va xizmatlarda – 115,8 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 2 377,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 1 998,5 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 52,3 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 54,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

1 998,5

54,0 %

2024- yil

2 377,2

52,3 %

